

Date: 5th June-2026

UO‘T 635.657.632.4.934

O‘ZBEKISTON SHAROITIDA LOVIYANING ZARARKUNANDALARI.

Raxmonqulova Lola Farhod qizi

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti agrokimyo va o‘simliklarni himoya qilish kafedrasida magistranti,

zs029031@gmail.com

Umurzakov Elmurod

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti professori.

ВРЕДИТЕЛИ ФАСОЛЯ В УЗБЕКИСТАНЕ.

Рахмонкулова Лола Фарход қизи

магистр кафедры агрохимии и защиты растений Самаркандского государственного университета имени Шароф Рашидова.

Умурзаков Элмурод

Самаркандский государственный университет ветеринарной медицины, животноводства и биотехнологии.

BEAN PESTS IN UZBEKISTAN.

Raxmonkulova Lola Farxod kizi

postgraduate student of the Department of Agrochemistry and Plant Protection of the Samarkand State University named after Sharof Rashidov.

Umurzakov Elmurod

Samarkand state university of veterinary medicine, animal husbandry and biotechnology.

Anotatsiya. G‘o‘za tunlami, tuganak uzunburun, akatsiya va beda shirasi, donxo‘rlar, o‘rgimchakkanalar, gamma tunlami, ko‘sak qurti, ildiz qurti, yovvoyi tunlam, undov tunlami kabi kemiruvchi zararkunandalar takroriy ekilgan loviya maydonlarida uchraydi.

Kalit so‘zlar. Tuganak uzunburuni, akatsiya va beda shirasi, donxo‘rlar, o‘rgimchakkana, tunlamlar.

Аннотация. Грызуны-вредители, долгоносики, тли акации и люцерны, зерновой сверлильщик, паутинный клещ, гамма-сверлильщик, хлопковая совка, корневая совка часто встречаются на повторно засеянных полях фасоли.

Ключевые слова. Долгоносики, тли акации и люцерны, зерноядные насекомые, пауки

Кириш. Respublikamiz hududida keyingi yillarda takroriy ekin sifatida loviya ekib kelinmoqda. Loviya maydonlari yildan-yilga kengayib bormoqda. Shu bilan bir vaqtda



Date: 5th June-2026

bilan bir vaqtda zararkunanda, kasallik va begona o'tlardan himoya qilish hosilni saqlab qolish uchun muhimdir.

BMTning FAO oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti sessiyasida qishloq xo'jalik zararkunandalari oziq-ovqat xavfsizligiga jiddiy xavf solayotganligi va ularning ta'sirida qishloq xo'jalik ekinlarining 40% hosili nobud bo'layotganligi va bu nobudgarchilik dunyo miqyosida 220 million AQSH dollarini tashkil qilinishi ta'kidlandi. Shu sababli o'simliklarni himoya qilish respublikamizda qishloq xo'jaligini 2030 yilgacha barqaror rivojlantirishda asosiy yo'nalishlardan hisoblanadi.

Dunyo qishloq xo'jaligining asosiy tarmog'i hisoblangan dukkakli don ekinlari inson uchun eng zarur oqsil, yog' va uglevodlarga boy bo'lganligi sababli inson organizmi tomonidan ko'p talab qilinadigan oziqa mahsuloti hisoblanadi. Shunga ko'ra dukkakli don ekinlarida zarar keltirayotgan zararkunandalarning tur tarkibi, biologik xususiyatlari, tarqalishi va zararini o'rganish asosida ularga qarshi samarali kurash choralarini ishlab chiqish va amaliyotga tadbiq etish borasida olib borilayotgan ilmiy-tadqiqotlarni amalga oshirish dolzarb vazifalardan hisoblanadi.


Tadqiqot uslublari. Tadqiqotlar umumiy entomologiya hamda qishloq xo'jalik entomologiyasida keng foydalaniladigan usul va uslublar yordamida bajarildi. Entomologik hisoblar va kuzatuvlarni G.Ya.Bey-Bienko, L.A.Kopaneva aniqlagichlari yordamida; zararkunandalarning zichligi, uchrashi, dominantlarini aniqlashda K.Fasulati uslublari; Hasharotlarning zararlilik darajasi V.I.Tanskiy uslubi bo'yicha aniqlandi. Agrotoksikologik tajribalarni K.A.Gar, Sh.T.Xo'jaev uslubiga muvofiq o'tkazildi. Dala va laboratoriya tajribalarida biologik samaradorlikni hisoblash nazorat variantini inobatga oladigan Sh.S.Abbot formulasiga muvofiq aniqlandi.

Tadqiqot natijalari. Tadqiqotlarda такрорий эжилган ловия зарarkunandalar ichida keltiradigan zarari bilan iqtisodiy ahamiyatga ega bo'lgan 5 turdagi zararkunandalar asosiy dominant turlar deb topilgan. Bular oddiy o'rgimchakkana – *Tetranychus urticae* Koch., maysa uzunburuni qo'ng'izi – *Setona cylindricollis* Fahr., loviya donxo'ri – *Acanthoscelides altectus* Sag., akatsiya shirasi – *Aphis medicagines craccivora* Koch., g'o'za tunlami – *Heliothis armigera* Hb kabi zararkunandalardir. Ushbu zararkunandalardan loviya ekini



1-rasm. O'rgimchakkana (*Tetranychus urticae* Koch.) va loviya bargini zararlashi.

Date: 5th June-2026



2 -rasm. Poliz shirasi rivojlanish sikli.



3-rasm. Bit imagosi.

uchun bioekologiyasi o'rganilgan hamda fenokalendar tuzilgan. Shu bilan birga ularni zararlash darajasi o'rganilgan.

№	Loviyaning kemiruvchi zararkunandalari
1	Maysa uzunburun qo'ng'izi – <i>Setona cylindricollis</i> Fahr.
2	Xumkalla (kravchik) qo'ng'izi – <i>Lethrus pygmaecus</i> Ball.
3	Dala sustkashi – <i>Opatrum sabulasum</i> L.
4	Loviya donxo'ri – <i>Acanthoscelides altectus</i> Sag.
5	G'o'za tunlami – <i>Heliothis armigera</i> Hb.
6	Kuzgi tunlam – <i>Agrotis segetum</i> Schiff.

№	Loviyaning so'ruvchi zararkunandalari
1	No'xat shirasi – <i>Acyrtosiphon onobrychis</i> Fonse.
2	Poliz shirasi – <i>Aphis gossypii</i> Glon.
3	Dala qandalasi – <i>Lygus pratensis</i> L.

Date: 5th June-2026

4	G'ovak hosil qiluvchi no'xat pashshasi – Liriomyza cicerina Rond.
5	Oddiy o'rgimchakkana – Tetranychus urticae Koch.

Takroriy ekilgan loviya maydonlarida zararkunandalardan g'o'za tunlami, tuganak uzunburun, akatsiya va beda shirasi, donxo'rlar, o'rgimchakkana uchraydi.

Takroriy ekilgan loviya ekinini o'simlik bitlarining bir necha turlari zararlaydi, ular dukkak hosilini 20% gacha kamaytirishi aniqlangan. Bitlar o'simlik shirasini so'rib uni mahsuldorligiga jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa, g'o'za yoki poliz biti, beda yoki akatsiya biti, shaftoli bitlari katta zarar keltiradi.

Loviyaga bir necha turdagi tunlamlar jiddiy zarar keltiradi. Bular gamma tunlami, ko'sak qurti, ildiz qurti, yovvoyi tunlam, undov tunlami hisoblanadi. Karadrina o'ta xavfli zararkunanda bo'lib davriy ravishda rivojlanib, o'simlik barglarini kemirib zarar yetkazadi.

Xulosa. Zararkunandalardan g'o'za tunlami, tuganak uzunburuni, akatsiya va beda shirasi, donxo'rlar, o'rgimchakkana takroriy ekilgan loviya ekin maydonlarida uchraydi. Loviya hosil elementlariga gamma tunlami, ko'sak qurti, yovvoyi tunlam, undov tunlami kabi kemiruvchi zararkunandalar jiddiy zarar keltiradi.

ADABIYOTLAR:

1. Хўжаев Ш.Т. Энтомология, қишлоқ хўжалик экинларини ҳимоя қилиш ва агротоксикология асослари //- Тошкент.- Фан.- 2010.- 356 б.
2. Инсектицид, акарицид, биологик фаол моддалар ва фунгицидларни синаш бўйича услубий кўрсатмалар (проф. Ш.Т. Хўжаев таҳрири остида). –Тошкент.- 2004 . - 103 б.
3. Хўжаев Ш., Обиджонов Д., Шокирова Г., Юлдашев Ф. Ҳашаротларнинг зарари ва ўсимликларни улардан ҳимоя қилишнинг истиқболлари. Агрокимё ҳимоя ва ўсимликлар карантини, 2017, №4, - 30 – 33 б.
4. Ахмедов С.И., Умурзаков Э.У. Зараркунандаларга қарши инсектицидларни қўллаш самарадорлиги. – Республика илмий-амалий конференция материаллари.- СамВМИ.- Самарқанд.- 2020.- 6.122-125.
5. А.То'раев. Kuzgi bug'doy va takroriy ekinlar. "O'zbekiston qishloq xo'jaligi" jurnali. 2001 y. 6-son. 40 b.
6. Kimsanboyev H.X., Ergashev S.F., O'lmasboyeva R.Sh., Sulaymonov B.A. Entomologiya. O'quv qo'llanma. "O'qituvchi" nashriyoti. Toshkent. 2016.-345 bet.
7. Umurzakov E., Axmedov S., Mamasaliyev I. Qishloq xo'jalik entomologiyasi. O'quv qo'llanma. Samarqand. 2021.-316 bet.
8. Долженко Т.В., Колесников Л.Е., Семенова А.Г. Интегрированная защита растений. Учебник. Лань. Санкт-Петербург. 2024.-120 с.
9. George C. McGavin, Leonidas-Romanos Davranoglou. Essential Entomology. Textbook. Oxford university press. USA. Oxford. United Kingdom. 2022.-p. 314.
10. Larry P. Pedigo, Marlin E. Rice. Entomology and Pest Management. Textbook. Long Grove, Illinois. Waveland Press. USA. 2015.-p.784.
11. https://agromage.com/stat_id.php?id=1127.